

TA'LIM SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

Narzullayeva Muxlisa

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

E-mail: rovshanova1970@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20552208>

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim samaradorligini baholashning asosiy mezonlari va ko'rsatkichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonining sifatini aniqlashda qo'llaniladigan usullar, baholash tizimlari hamda ularning amaliy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida samaradorlikni aniqlash mezonlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim samaradorligi, baholash mezonlari, ko'rsatkichlar, ta'lim sifati, o'quv jarayoni, bilim, ko'nikma, malaka, pedagogik yondashuv, monitoring, natijadorlik, baholash tizimi

Аннотация

В данной статье проводится научно-теоретический анализ основных критериев и показателей оценки эффективности образования. Освещаются методы, используемые для определения качества образовательного процесса, системы оценки и их практическое значение. Также рассматриваются пути повышения эффективности образования путем оценки знаний, умений и навыков учащихся. В статье предлагаются критерии определения эффективности на основе современных педагогических подходов.

Ключевые слова: эффективность образования, критерии оценки, показатели, качество образования, учебный процесс, знания, умения, навыки, педагогический подход, мониторинг, результативность, система оценивания.

Abstract

This article provides a scientific and theoretical analysis of the main criteria and indicators for evaluating educational effectiveness. The methods used to determine the quality of the educational process, assessment systems, and their practical significance are highlighted. Ways to increase educational efficiency by assessing students' knowledge, skills, and abilities are also considered. The article proposes criteria for determining effectiveness based on modern pedagogical approaches.

Keywords: educational effectiveness, evaluation criteria, indicators, quality of education, educational process, knowledge, skills, abilities, pedagogical approach, monitoring, efficiency, assessment system.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va samaradorligini ta'minlash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik ko'p jihatdan ta'lim tizimining qay darajada samarali tashkil etilganiga bog'liqdir. Shu sababli ta'lim jarayonini nafaqat tashkil etish, balki uning natijadorligini aniq mezonlar asosida baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim samaradorligi – bu o'quv jarayonining maqsadga muvofiqligi, o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalari darajasi, shuningdek, ularning amaliy faoliyatda qo'llay olish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim samaradorligini baholash

mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aniq va asoslangan baholash tizimi ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida baholash jarayoni faqatgina nazorat vositasi sifatida emas, balki o'quvchilarni rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlashini shakllantirish va motivatsiyasini oshirish vositasi sifatida ham qaralmoqda. Shu bois baholash mezonlari nafaqat yakuniy natijani, balki o'quv jarayonining o'zini ham qamrab olishi lozim. Bunda diagnostik, formatif va summativ baholash usullaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada ta'lim samaradorligini baholashning asosiy mezonlari va ko'rsatkichlari, ularning mazmun-mohiyati hamda amaliy ahamiyati keng yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar va baholash usullari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Ta'lim tizimini samarasini belgilovchi asosiy qismlaridan biri baholash tizimidir. Baholash tizimi o'qitish sohasida teskari a'loqa tizimi hisoblanib, ta'lim natijalarini bevosita kuzatish, monitoring olib borish, ta'limda o'qitish taktikasini tanlash va ta'lim oluvchilarda rivojlantirish ta'moyilini shakllantirish imkoniyatini beradi[1,2,3]. Ta'lim tizimida ikki taraf ishtirok etib, ular ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi. Ularni mexnati darajasi ta'lim sifatini shakllanishini tashkil etadi. Umuman olganda mexnatning asosiy mezonlariga professional mukammallik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: - yuqori sifat va mehnat unumdorligini ta'minlovchi optimal texnologiyani to'g'ri tanlashni nazarda tutuvchi kasbiy faoliyatdagi mustaqillik;

- ishlab chiqarish holatiga tashxis qo'yish, tegishli qaror qabul qilish qobiliyati, muntazam ravishda o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyati; - texnik talablarni bajarish, mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, barqaror ijobiy natijalarni olish; - mehnat unumdorligi — vaqt va ishlab chiqarishning barqaror normalarini bajarish; - ish vaqtidan oqilona foydalanish qobiliyati, yuqori samarali mehnat usullarini, ishni tashkil etishning eng tejimli usullarini o'zlashtirishga intilish; - faol kuzatish, tahlil qilish, taktika va harakat strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatida namoyon bo'ladigan kasbiy yo'naltirilgan fikrlash; tanqidiy o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati; - mehnat madaniyati - mehnat jarayonini oqilona rejalashtirish, ishning eng yaxshi usul va usullarini tanlash qobiliyati, texnologik intizomga rioya qilish; - mehnatga ijodiy munosabat - mehnat jarayoniga innovatsion texnologiyani joriy etish qobiliyati; - ratsionalizatsiya va ixtirochilikda tashabbus ko'rsatish; - kasbiy vazifalarni bajarish uchun javobgarlik va boshqalar.

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish, baholash, baholashning vazifasi va funksiyalari, baholashga qo'yiladigan pedagogik talablar, turlari va shakllari, o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning reyting tizimi, reyting tizimini amalga oshirish, reyting tizimi to'g'risidagi Nizom va buyruqlar.

Ta'lim oluvchilar tomomdan o'quv materiallari o'zlashtirilganligi-ni, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismini hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga ensilganlik darajasini oldindan beleilgan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Baxolash-talim jarayonining malum bosqichida, o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilab qo'yilgan mezonlar asosida belgilash, o'lchash va taxlil qilish jarayonidir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundaki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash j'atgasida. ta'iim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, gaysi material yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatim kelgusida tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ta'lim beruvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi.

Shunmgdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturiga materiallarni ta'lim beruvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin. qaysi birlari esa oson o'zlashtinlishi aniq-ravshan bo'ladi, Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi. qaysinisini qomqarli va nimani yomon o'zlashtirgam ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, amaliyotda esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi rna'lum bo'lib qoladi, Baholash natijasida. ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlarga tanqidiy baho berish darajalari amqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlarining ijobiy tavsifi, kasb-hunar kollejida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatmi hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ulanm, uning xarakteridagi iroda, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarim shakllantirishga qaratishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham enshadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib etadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining mezonini deb ham aytish mumkin.

Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onalarining unga, uning kollejdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga munosabatiga hech qachon befarq qolmaydi. Uning bilimlarga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqto'v, ma'qullash, tanbeh yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar or'sidagi mavqeyini shakllantiradi. Bu, ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga ega.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga ega. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining talim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. p^ivlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajaraliyotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshinlib kp'rilishj kerak. Bu bilan ta'lim tiziimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib, o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab bonsh ta'lim rejasi, unmg katta kichik bo'


limlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi natijala muayyan standart me'yorlari orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayomni tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

Ta'lim dasturini qism bo'laktari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanish shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi,

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabaning o'zligini anglashi uchun bir imkomiyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati naflida quyidagi xulosalarni aytish mumkin.



Baholash tizimlari

- Baholashning besh balli tizimi;
- Baholashning reyting tizimi.
 - a) besh balli reyting tizimi;
 - b) yuz balli reyting tizimi

Besh balli tizimga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

- Tizimli va doimiy tarzda bo'lishi shart;
- Individual xarakterga ega bo'lishi kerak;
- Davlat ta'lim standartlariga asoslangan (o'zlashtirish darajalari hisobga olingan) bo'lishi kerak.
- Yuz balli reyting tizimida:

Egallanishi mumkin bo'lgan maksimal ball-
100 ball;

Joriy nazorat bo'yicha erishilishi mumkin

bo'lgan maksimal ball-80 ball;
 Oraliq nazorat bo'yicha erishilishi mumkin
 bo'lgan maksimal ball-20 ball;
 O'tish bali -55 ball (%)

zamonaviy pedagogikada “Ta’lim sifati” deganda xalqaro standartlar darajasida belgilangan hamda chuqur va yuksak natijalar ko’zda tutilgan, ta’lim ehtiyojlarini qondiradigan, murakkab va ko’p qirrali jarayonlar xususiyatini o’zida mujassam qilgan, ta’limning sifat va samaradorligini aniqlab beradigan ko’rsatkichlar tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim jarayonni sog’lom bolalar va alohida ta’lim ehtiyoji mavjud bo’lgan bolalarning ta’lim ehtiyojlarini qondirishga qodir bo’lgan ta’limning eng maqbul yo’lidir. Ana shu maqbul yo’lni biz sifatini shakllantirsak, eng muhim xalqaro tizim mezonlariga javob beradigan inklyuziv ta’lim tizimini yaratgan bo’lamiz. Uning sifatini baholashga va muntazam ravishda nazorat qilib yondashish talab qilinadi, chunki har bir ta’lim muassasasining ushbu jarayonning yutuqlari va kamchiliklari, o’quvchi va o’qituvchilarning faoliyati, ota-onalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki bolalarning psixologik va jismoniy xususiyatlari kabilar hisobga olinadi. Ko’p yillardan buyon erishilgan yutuqlar va tajribalar asosida shakllangan integratsiya va umumiy tamoyillarga va inklyuziv ta’limning o’ziga taalluqli bo’lgan tamoyillarga asoslangan zamonaviy xalqaro pedagogikaning inklyuziv ta’limga tegishli qismida, O’zbekiston tajribasi ham asta-sekin sahnaga chiqmoqda. Rivojlangan davlatlar tomonidan tan olingan eng universal inklyuziv

ta’lim uchun yaratilgan baholash mezonlarining orasida o’ziga xos ko’lamga ega bo’lmoqda. Buning natijasida integratsiya jarayonlarining rivojlanish darajasini taqqoslash va baholash mumkin.

Jarayonni baholash: dasturlarning chorak, yil davomida kuzatilgan natijalar va guruhlardan olingan ma’lumotlar, tahlillar asosida amalga oshiriladi. Baholash uchun dastlabki va oxirgi ma’lumotlarni taqqoslash yoki nazorat guruhlari to’plami asosida amalga oshiriladi. O’quvchilarning imkoniyatlari, o’qituvchilarning kompetensiyalarini aniqlashga asoslanadi.

Baholashning reyting tizimi

Afzalligi

hakkoniy baholanishi;

yozma nutqning o’sishi;

yozma nutqda xato va kamchiliklarni aniqlash; imkoniyatlarining mavjudligi;

talim oluvchining bilimga bo’lgan ishtiyokining sezilarli darajada oshishi;

talim oluvchini muntazam shug’ullanishga undashi

Kamchiligi

talim beruvchi talim oluvchi bilan ishlanganda ko’p vakt sarf qiladi;

ballarni hisoblash ko’p vaqtni talab qiluvchi murakkab jarayonligi;

baxolash usullariga qarab talim oluvchi og’zaki nutkining pasayishi;

ajratilgan vaktning yetarli emasligi;

ta’lim oluvchini baholash nazoratining murakkabligi va noqulayligi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta’lim samaradorligini baholash zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta’lim jarayonining sifatli tashkil etilishi, uning natijadorligi hamda o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish darajasi aynan to’g’ri va asosli baholash mezonlariga bog’liqdir. Shu bois baholash jarayoniga yuzaki emas, balki ilmiy yondashuv asosida qarash zarur.

Ta'lim samaradorligini aniqlashda turli mezon va ko'rsatkichlardan foydalanish o'quv jarayonining har tomonlama tahlil qilinishiga imkon yaratadi. Bunda nafaqat o'quvchilarning yakuniy natijalari, balki ularning o'quv jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi, muammolarni hal eta olish qobiliyati ham muhim ko'rsatkich sifatida e'tiborga olinadi. Shu orqali ta'lim jarayonining haqiqiy samaradorligi aniqlanadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida baholashning yangi usullarini joriy etish ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Xususan, formatif va summativ baholash, monitoring tizimi, diagnostik yondashuvlar orqali o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash va tahlil qilish mumkin. Bu esa o'qituvchiga o'z faoliyatini takomillashtirish, dars jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda baholash mezonlarining aniqligi, adolatliligi va shaffofligi muhim ahamiyatga ega. Agar baholash tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, u nafaqat nazorat vositasi, balki rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi omilga aylanadi. Bu esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol va mustaqil bilim olishga undaydi.

Umuman olganda, ta'lim samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini to'g'ri belgilash hamda ularni amaliyotga joriy etish orqali ta'lim tizimining sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Bu esa o'z navbatida, raqobatbardosh, bilimli va har tomonlama rivojlangan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sifatini baholashga oid qarorlari va me'yoriy hujjatlari.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
4. Azizxo'jayeva N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.
6. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya
7. Xoliqov A. Pedagogika. – Toshkent, 2014.
8. Zamonaviy ta'limda baholash tizimlari va monitoring bo'yicha ilmiy maqolalar (internet manbalari).
9. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalar (UNESCO materiallari).
10. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari (Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha).